

AFG‘ONISTONDA TEMIR YO‘L TERMINLARINING SHAKLLANISHI

Xaitov Ashurali G‘ayrat o‘g‘li

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti 2-kurs Magistratura talabasi

Temir yo‘l transporti umumiy transport tizimining uzviy qismidir. Shuning uchun butun transport tizimidan foydalanish jarayonida soha terminologiyasining aniqligi va xalqaro standartlarga mosligi qanchalik ahamiyatga ega bo‘lsa, temir yo‘l transporti tizimida ham shunchalik muhimdir. Temir yo‘l transporti tizimini boshqarish, harakatni tartibga solish, texnik xizmat ko‘rsatish, logistika sub’ektlarining o‘zaro munosabatlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va xatto temir yo‘llar qurishni ham maxsus terminologik tizimsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Pashtu tilidagi texnik terminlarning o‘rganish masalasi bo‘yicha juda oz ishlar qilingan. Xususan, temir yo‘l bilan bog‘liq terminlar tadqiqotlari deyarli ishlanmagan. Bizning dastlabki kuzatishlarimiz shundan dalolat beradiki, temir yo‘lga oid terminlar XX asrning 20-yillaridan e‘tiboran ko‘rina boshlagan.

Afg‘onistonda temir yo‘lning rivojlanishi bevosita Omonulloh davrida vujudga keladi, negaki, uning Yevropa davlatlariga poyezda qilgan sayohatlari uning dunyo qarashini tubdan o‘zgartirib yuboradi. U Britaniyaga 1928-yil mart oyida poyezdda keldi va Londonning eng katta temir yo‘l stansiyasida (Viktoriya stansiyasi) o‘sha paytdagi Britaniya qiroli Jorj va qirolicha Meri tomonidan iliq kutib olindi.¹ Afg‘onistonda temir yo‘lini qurish rejasi garchi bundan oldin ham bo‘lgan bo‘lsada hech qanday amaliy choralar ko‘rilmagan edi. Taxminlarga ko‘ra, Omonullohxon poyezd bilan Yevropaga sayohat qilgandan so‘ng, temir yo‘l mamlakat taraqqiyotida muhim rol o‘ynashi mumkinligi haqida yanada kuchliroq ishonch hosil qilgan.

¹ <http://www.andrewgrantham.co.uk/afghanistan/>

1920-yillarda podshoh Omonullohxon Germaniyaning Kassel shahridagi Henschel kompaniyasidan 2 fut 6 dyum (762 mm) kalibrli uzunlikdagi 7 kilometr uzunlikdagi, Kobul va Podshoh Saroyini bog'laydigan temir yo'lga uchta kichik parovoz sotib oldi. Londondan chiqadigan "Lokomotiv" jurnalining 1922-yil dekabr sonida yozilishicha, "Afg'onistonlik sayohatchilar Kobuldan yangi Podshoh Saroyiga qadar qariyb olti mil masofada temir yo'l yotqizishiyapti va uning uchun ishchilarning bir qismi Kobul zavodlarida rels ishlab chiqarish ishlariga jalb qilingan". Ushbu jurnalning 1928-yil avgust sonida ta'kidlanishicha, "Afg'onistondagi yagona temir yo'l Kobul va Podshoh Saroyi o'rtasida bo'lib, u besh milya uzunlikga ega".¹

Afsuski, Afg'onistonda tarqqiyotga qarshi bo'lgan kuchlar ko'p edi va bu kuchlar Omonullohxonning ham taxtdan ketishiga sabab bo'ldi. Omonullohxon taxtdan ketganidan keyin ushbu sohaga temir yo'lga, qiziqish ancha pasayib ketdi va bir paytlar Germaniyadan keltirilgan parovoz poyezdlar 1940-yillarda qismlarga ajratilib tashlandi.² Shu tariqa temir yo'lga bo'lgan qiziqish bir muddat to'xtab qoldi. Ma'lumotlarga qaraganda ushbu Germaniyadan keltirilgan parovozlar 2004-yildan boshlab, Podshoh Saroyidagi Afg'oniston Milliy muzeyida ochiq havoda ko'rgazmaga qo'yila boshlagan. Ammo uning hozirgi ko'rinishi haqida ma'lumot yo'q. Afg'onistonda temir yo'l rivojlanmay qolishiga sabab, ikkinchi jahon urushi hamdir. Negaki, urushda Afg'oniston juda kata iqtisodiy qiyinchilik va muammolarga duch kelgan. Shu tufayli Afg'onistonga temir yo'lni rivojlantirish loyihasi bir qancha muddatga to'xtab qolgan edi.

Afg'onistonda temir yo'l XX asrning 70-80-yillarida asta-sekin bilan rivojlana boshlaydi. Bunga sabab, Afg'oniston diyoriga Sovet Ittifoqi bostirib kelishi bilan baholanadi, negaki, Sovet Ittifoqi aynan temir yo'l orqali o'zining texnikalarini, qurollarini, oziq-ovqat mahsulotlarini hamda o'ziga kerakli bo'lgan barcha ehtiyojlarini temir yo'l orqali Afg'oniston mamlakatiga olib kirgan. Bu albatta o'zining ta'sirini o'tkazmasdan qolmagan. Jumladan, qishloq xo'jaligi texnikalarida, qurol-

¹ <http://www.andrewgrantham.co.uk/afghanistan/railways/kabul-to-darulaman-railway>

² <http://www.bcc.pashto>

yarog' texnikalarida, har xil turdagi mashinalarda va temir yo'l sohalariga Pashtu tiliga turli xildagi terminlar kirib kela boshladi. Bu terminlarning ko'pchiligi qanday bo'lsa shundayligicha pashtu tiliga o'zlashtirildi yoki pashtu tiliga tarjima qilindi. Garchi ko'pgina texnikaviy terminlar Sovet Ittifoqi davrida kirib kela boshlagan bo'lsada, bu jarayon afg'on-ingliz urushi davri va podshoh Omonullohxonning Yevropa davlatlariga uyushtirgan safar chog'laridanoq boshlangan edi.

Afg'oniston temir yo'llari idorasi ma'lumotlariga qaraganda, hozirga kelib, Afg'oniston temir yo'llari 2 xil bog'lanishdan iborat: Ichki va tashqi. 1) Ichki bog'lanishda, Afg'oniston temir yo'li 4 ta yo'nalish bilan o'zaro bog'lanadi. Ular korridor (yo'lak) deb nomlanadi. Ushbu yo'llakda 4 ta yo'nalish mavjud: ular - g'arbiy, sharqiy, shimoliy va markaziy yo'lakdirlar.

- Shimoliy yo'lak Kunduz viloyatining Sherxon portidan boshlanib, Balx, Juzjon, Faryob, Bodg'iz va oxiri Turg'undey - Hirot viloyatigacha

- G'arbiy yo'lak u Hirotning Turg'undey portidan boshlab Faroh, Nimruz, Helmand, Kandahor, Zobil, G'azni, Lovgar, Vardak, Bomiyon, Bag'lon va Kunduz viloyatining Sherxon portigacha

- SHarqiy yo'lak Nangarhor viloyatining To'rxam portidan boshlanib Kobulgacha

- Markaziy yo'lak Hirot viloyatidan boshlanib, Kobul shahrigacha cho'zilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra,

- Shimoliy yo'lak Kunduzdan Hirotgacha - 1257 km uzunlikda

- G'arbiy yo'lak Hirot dan Kunduzgacha - 1100 km.

- Sharqiy yo'lak Nangarhordan Kobulgacha -1325 km.

- Markaziy yo'lak - Hirot dan Kobulgacha 575 km bog'lanishga ega.

2) Tashqi tomondan Afg'oniston temir yo'llari 4 ta mamlakat bilan temir yo'l orqali bog'langan bular: Tojikiston, O'zbekiston, Turkmaniston va shimoliy g'arbda Eron bilan. Afg'oniston temir yo'llari qo'shni mamlakatlar bilan quyidagi uzunlikda temir yo'l bilan ulangan va kelajakda ham o'zaro bog'lanish loyihalari mavjud. Ular quyidagilar; Kelajakda bog'lanishi kutilayotgan Afg'ontrans loyihasi: 1) O'zbekiston-Afg'oniston-Pokiston 760 kmlik temir yo'li

- 2) Turkmaniston-Afg‘oniston-Tojikiston 85 kmlik temir yo‘li
- 3) Turkmaniston-Afg‘oniston-Tojikiston 85 kmlik temir yo‘li
- 4) Turkmaniston-Afg‘oniston 31 kmlik temir yo‘li
- 5) Eron-Afg‘oniston (Hirof-Havof) 225 kmlik temir yo‘li ¹

Umumiy Afg‘oniston temir yo‘llarining uzunligi 5040 km, shundan uning to‘laqonli bitkazilgan temir yo‘llari 3300 kmni tashkil etadi. ² Hozirgi kunda Afg‘oniston 3 ta nuqta bilan o‘tkazmalarni amalga oshirib kelmoqda. Ular quyidagilar : Hayraton porti orqali O‘zbekiston, Aqina porti orqali Turkmaniston, Turg‘undey porti orqali Turkmaniston doimiy o‘tkazmalarni amalga oshirib kelinmoqda.

Ushbu temir yo‘llaridan eng ko‘p o‘tkazmalarni O‘zbekiston va Hayraton porti orqali amalga oshirib kelmoqda. Deyarli 70 foiz o‘tkazmalar ushbu port orqali amalga oshiriladi. Mavjud liniyalarni qayta ishlatish ko‘p vaqt talab qilmasligi mumkin, ammo siyosiy va xavfsizlik vaziyatining barqarorligini saqlab qolish va Afg‘oniston temir yo‘l rejasini amalga oshirish uchun Kobul iqtisodiy jihatdan o‘ziga ishonch hosil qilishi kerak. Umuman olganda, hozirgi kunda yuklarni arzonroq tranzit qilish yo‘li bu – temir yo‘l hisoblanadi.

Ma’lumotlardan shu narsa ko‘rinib turibdiki, Afg‘onistonda temir yo‘l bilan bog‘liq masalalarga XX asrning birinchi choragidan e’tibor berila boshlagan bo‘lsada, lekin hozirda bu soha bo‘yicha temir yo‘l texnikasiga oid terminologik masalalar oldida juda ko‘p muammolar dolzarbligicha bo‘lib qolmoqda. Va bu masalani to‘g‘ri ilmiy hal qilmasdan turib, mamlakatda soha bo‘yicha ish yuritish juda katta ham tashkiliy, ham iqtisodiy muamollarga duch kelaveradi. Shuning uchun hozirgi kunda temir yo‘l texnikasining terminini zudlik bilan ishlab chiqish va joriy etish dolzarbdir. Jumladan, birinchi navbatda hozirgacha mavjud bo‘lgan temir yo‘lga oid terminlarni

¹ <https://www.railwaygazette.com/asia/afghan-railway-terminal-expansion-mou-signed>

² *Railway Gazette*. 18 April 2016

to'plash, ilmiy lingvistik tasniflash va tegishli lug'atlar tuzish muhimdir. Biz o'z tadqiqotimiz jarayonida 200 ga yaqin temir yo'l terminlarini BBC Pashto, Pajhwok afghan news, Tolonews, Afg'oniston temir yo'llari idorasi, Wikipedia, internet saytlari, shaxsiy izlanishlar natijasi asosida manbalar to'plashga muvaffaq bo'ldik va ularni temir yo'l sohalari, texnikasi bo'yicha tasniflashga kirishdik.

Biz tadqiqotimiz davomida temir yo'l terminlarini o'rganish maqsadida 2023-yilning 28-iyulidan shu yilning 28-avgustigacha Afg'onistonning Balx viloyatida joylashgan Hayraton stansiyasida bo'ldik. Va shu vaqt mobaynida temir yo'l terminlarini mustaqil ravishda tadqiq etdik. O'rganishlarimiz shuni ko'rsatadiki, temir yo'l sohasida aksar terminlar xalqaro terminlar hisoblanar ekan. Ushbu terminlar Pashtu tiliga to'g'ridan to'g'ri o'zlashgan yoki bo'lmasa, Pashtu tiliga kalka qilingan.

Biz quyidagi terminlarni eslatib o'tamiz; Misol uchun: o'zbekcha rels so'zi- inglizcha rail, pashtu tiliga رېل [rel] deb o'zlashdi, temir yo'l-rail way- رېل پټلۍ [rel patley], poyezd-train- اورگادۍ [urgodey], rels kengligi-gauge- گېچ [gech], vagon-vagon- قطار [qator], bekat-station- سټېشن [steshn], signal-signal- سيگنل [signol], post-post- پوست [pust], yo'lavchi-passanger- سپرلى [sparley], chipta-ticket- ټيكت [ticket], manyovr-manyovr- مانور [monnaver], temir yo'l bekati- سټېشن رېل د اوسپنى پټلۍ د [d o'spanay d rel steshn], lokomotiv-locomotive- لکوموتیو [lo'komotiv], nazorat-control- کنترول [kantro'1], tormoz-топмоз- ترمز [to'rmz], kupe- купе- کوپه [kupe], avtomatik- automatic- اتوموتیک [otumotik], tune-tunnel- تونل [tunal], platforma-platform- پلاتفرم [platform], ballast-balast- بالاست [bolost], tizim-system- سیستم [sistm], konteyner-container- کانتینر [konteynar] va shu kabilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Pashtu tilida temir yo'l terminlarini o'rganish va tatbiq etish hozirgi kunda dolzarb muammolardan biridir. Biz tadqiqotlarimiz davomida, ushbu temir yo'l terminlarining yasaliş tarkibi va ularning ushbu sohada ishlatilish ko'lamlarini diqqat bilan o'rganib chiqdik. Kelgusi tadqiqotlarimizda ularning leksik, semantik, fonetik va grammatik qoidalariga mos kelishini o'rganishni o'z oldimizga ustuvor qilib qo'ydik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Construction on Kabul-Torkham Railway to Start Soon, Ministry of Mines Says Archived 2013-11-09 at the Wayback Machine. Tamim Shaheer, October 18, 2011.
2. Railway Gazette International, July 2012, p30.
3. <https://web.archive.org/web/20070430101935/http://www.ajg41.clara.co.uk/afghanistan.html#sdfootnote40sym> Railways in Afghanistan, past and future.
4. *Ben Farmer (13 June 2010). "Afghanistan to complete first railway by end of year". London: Daily Telegraph.*
5. "Afghan railway: First train runs on new line in north". *BBC News*. 2011-12-21.
6. "Aqina-Andkhai Railway Officially Inaugurated". *Khaama Press*. 14 January 2020. Retrieved 2021-01-17.
7. Pajhwok Afghan News – ADB to give \$222m for roads, rail tracks. Abdul Qadir Siddiqui. October 19, 2011.